

## **INKLYUZIV TA’LIMDA PSIXOLOG VA UNING VAZIFALARI**

**Andijon tumani Inson ijtimoiy xizmatlar,  
ijtimoiy himoya milliy agentligi  
5-hudud, 2-uchastka kompleks xizmat  
ko‘rsatuvchi xodim Mamadaliyeva Durdona Obidjonovna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Inklyuziv ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo‘lishi mumkinligi yoritilgan .

**Kalit so‘zlar:** inkluziv ta’lim , shaxs, tibbiy-ijtimoiy, tarbiyachi, ta’lim samaradorligi, tarbiyachi, bolalarning faolligini.

Hozirgi kunda mamlakatda nogironlikning oldini olish va nogironligi bo‘lgan shaxslarning yashash, o‘qish, mehnat qilish va dam olishlari uchun qonuniy asos yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 avgustdagi F-5006-son farmoni nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan. Bu ta’lim amaliyoti va o‘qitish xizmatlarini tashkillashtirishni, ularga fundamental, aniq o‘zgarishlar kiritishni talab etadi. 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PQ-4947-son Qarori [2] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, ularni nazariy hamda amaliy asoslash, bu jarayonni metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlash pedagogika va maxsus pedagogika fanlari zimmasiga tushadi.

Ijtimoiy xizmatlarning yakka tartibdagi dasturi — yolg‘iz yashaydigan hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning yashash holatini baholash asosida ishlab chiqiladigan, ijtimoiy xizmatlarning va ijtimoiy yordam bo‘yicha xizmatlar ro‘yxatini, ularning hajmlarini, ularni ko‘rsatishning davriyligini, shart-sharoitlari va muddatlarini, shuningdek mas‘ul shaxslarni, shu jumladan yolg‘iz yashaydigan hamda yolg‘iz keksa va nogironligi bo‘lgan shaxsning yoki uning qonuniy vakilining majburiyatlari tavsifini o‘z ichiga oladigan hujjat;internat muassasalari — keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadigan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun «Muruvvat» internat-uylari, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun «Saxovat» internat-uylari, O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati;fuqarolar yig‘inining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha komissiyasi (ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha komissiya) — qonunchilikka muvofiq aholining zaif toifalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladigan fuqarolar yig‘ini komissiyasi, uning tarkibiga fuqarolar yig‘ini raisi, uning maslahatchilari va mas‘ul kotibi, komissiya tarkibiga saylangan fuqarolar yig‘ini hududida yashaydigan shaxslar, tuman (shahar) tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo‘limining xodimi, davolash-profilaktika muassasasining vrachi, shuningdek, zarurat bo‘lganda, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining, tuman (shahar) hokimligi moliya bo‘limining vakillari va ichki ishlar organlarining profilaktika bo‘yicha inspektori kiradi;o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashaydigan keksalar va nogironlar (yolg‘iz yashaydigan keksalar va nogironlar) — yolg‘iz yashaydigan yoki keksalar va nogironlar, voyaga etmagan bolalar yoxud qamoqda va jazoni o‘tash muassasalarida, uzoq muddat davolanishda bo‘lgan shaxslar bilan birga yashaydigan o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan pensiya yoshidagi shaxslar (60 yoshga etgan erkaklar, 55 yoshga etgan ayollar) hamda I va II guruh nogironlari;

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

Maxsus ta’lim muassasalari imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamda tor doiradagi ijtimoiylashishga yordam berish bilan cheklanib qoladi. Shuning uchun taniqli psixolog, defektolog L.S.Vigotskiy tomonidan bu tor doiradan chiqish, maxsus ta’lim bilan umumta’lim tizimidagi uyg’unlikka erishish deb ta’kidlagani, ayni haqiqat.

Yuqoridagi hamda Yurtboshimizning 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori yurtimizda inklyuziv ta’limning amaliy jihatdan e’tibor qaratishga asos bo‘ldi. Unga ko‘ra maktablarga inklyuziv joriy etilishi statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2021-2022 o‘quv yilida 31 ta umumta’lim maktabida 87 nafar alohida yordamga muhtoj bolalar qamrab olingan bo‘lsa, 2022-2023 o‘quv yiliga kelib, inklyuziv sinflar soni 195 tani tashkil etib, qamrov 504 nafarni tashkil etgan.

Bu shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortmoqda. Albatta, inklyuziv ta’lim tashkil etilgan maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologo - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish vazifalari yotadi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimida o‘qitish o‘qituvchilardan ikki karra mas’uliyat bilan ishlashni talab etadi.

Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me’yorga keltirish ishlarini olib boradi;

- bolalarning faolligini, ta’lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo‘llaydi;
- diqqat-e’tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchkovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o‘rin egallaydi. Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o‘qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog‘lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko‘rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi.

Inklyuziv ta’lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim. Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilklarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologo-pedagogik jihatdan o‘rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta’lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo‘lishi mumkin. Inklyuziv ta’lim muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi, zarurat bo‘lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta’lim jarayonida bolalar sog‘lig‘ini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me’yorini belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

Inklyuziv ta’lim sohasida psixologning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

- inkluziv ta’lim muhitida bolalarning individual ehtiyojlarini va xususiyatlarini aniqlash, baholash, va ularning o’qish jarayonida olishi mumkin bo’lgan qo’llab-quvvatlash turlarini belgilash;

- o’qituvchilarga turli xil o’quv usullarini va strategiyalarni qo’llashda ko’maklashish, shunda har bir bolaning ta’lim olish huquqi ta’minlanadi.

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, hoh u maxsus maktab, maktabgacha muassasalar bo’lsin, hoh umumta’lim muassasalar qoshidagi sinf yoki guruhlar bo’lsin, hoh uyda ta’lim olish bo’lsin – o’qitishning barcha shakllari—ta’lim sohasiga jalb qilinishi ma’lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o’qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta’lim muassasalarda ta’lim olayotgan bolalar bilan o’zaro muloqotda bo’ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg’unlashuvi ta’minlanadi. Biroq, ta’lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va ota-onasining huquqi hisoblanadi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya mutaxassislari zimmasiga bolaning ruhiy-jismoniy holatini o’rganish va tashxis qilish vazifasi yuklangan bo’lib, bolani har tomonlama tekshirish natijasida bolalarni o’qitish va ularga mos keladigan ta’lim sharoitini aniqlashga doir tavsiyalar beriladi. Shunday qilib, o’ziga xos ehtiyojlari bo’lgan bolaning umumta’lim sohasiga samarali jalb qilinishi uchun quyidagilar zarur:

- bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan korreksion tadbirlarni erta yoshdan boshlash

- umumiy ta’limga jalb qilingan har bir bola uchun tibbiy-psixologik-pedagogik kuzatuvni, ya’ni mutaxassislarning doimiy yordamini tashkil etish;

- ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog’lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta’lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta’minlash;

Bolaning ta’lim tizimiga jalb qilinishining biror ko’rinishi u uchun oddiy va foydali bo’lishi darkor, ayni paytda bu inkluziv ta’lim maromida rivojlanayotgan tengdoshlarining sifatli ta’lim olishiga halaqit bermasligi lozim.

Xulosa tariqasida shuni aytish joizki, bugungi kunda, ta’lim olish – insonning siyosiy huquqi ekanligi, mamlakatimizda inkluziv ta’limga berilgan e’tibor, amalga oshirilayotgan ishlarda o’z ifodasini topmoqda. Inkluziv ta’lim muhiti - bu ta’lim jarayonining barcha sub’ektlariga o’z-o’zini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini ta’minlaydigan ta’lim muhitining bir turi. Bu ta’lim maydonini har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtirish, shu jumladan ta’lim jarayonini isloh qilish, uslubiy moslashuvchanlik va o’zgaruvchanlik, qulay psixologik iqlim, sinf xonalarini barcha bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun qayta loyihalash orqali nogiron bolalarni ta’lim olish muammosini hal qilishni o’z ichiga oladi. istisnosiz va bolalarning ta’lim jarayonida to’liq ishtirok etishiga imkon beradi. Bu jarayonlarda esa pedagog, psixolog, tibbiyot xodimlarining xizmatlari katta.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. «Bola ho’quqlari kafolatlati» Toshkent 2008 yil. OOO «Kvinta Print» MChJ bosmaxonasi.

2. Bo’lajak pedagoglarda inkluziv kompetentlikni rivojlantirish. Usmonova Dilnoza Toshmamatovna, Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2022 йил 6.2) ISSN 2181-1709 (P)

3. Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma’naviy va estetik rivojlantirish mavzusidagi ilmiy – nazariy konferensiya materiallari. Toshkent—Uzinkomsentr-2002 yil

4. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inkluziv ta’limni tashkil etish: Darslik / Otv. ed. S.V.Alekhina, E.N.Kutepova. - M.: MGPPU, 2013. -324s.